

ISSIQXONA KASALLIKLARINING BODRING GETEROZIS DURAGAYLARINING HOSILDORLIGI VA MAXSULOT SIFATIGA TA'SIRI

X.K.Bekmuradova

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti. Samarqand.
<https://doi.org/10.5281/zenodo.15235570>

Annotatsiya: Istemolchilar tomonidan sabzavot maxsulotlarining sifati va qiymatiga yuqori talablar qo'yiladi. Bu esa, nafaqat yuqori hosildor balki maxsulot sifati a'lo darajada bo'lgan, shu sharoitda sabzavot ekinlarining kasalliklarga chidamli, oziqa va texnologik sifatlari yuqori bo'lgan, shu bilan birga tashqi muxitning noqulay sharoitlariga ekologik jixatdan keng doirada moslasha oladigan nav va duragaylarni yaratish va yetishtirish muximligini ko'rsatmoqda, xamda raqobatni avj olishiga olib kelmoqda. Yuqorida ko'rsatilgan vazifalarni bajarish esa axolining sabzavot ekinlariga bo'lgan talabini qondirishda muxim axamiyatga ega.

O'tkazilgan tadqiqotlar yetishtiriladigan nav va duragaylarning maxsulot sifatiga yetishtirish texnologiyasi va issiqxona mikroiklimi xam katta ta'sir ko'rsatishini, olingan natijalar yetishtirish sharoitiga mos, xamda kasalliklar bilan eng kam zararlangan nav va duragaylardan yuqori va sifatlil hosil olish imkoni borligini, bunday duragaylar qatoriga Kuraj F₁, Djuliya F₁ va Asker F₁ duragaylarini qo'shish mumkinligini tasdiqladi.

Kalit so'zlar. Sabzavotchilik, yopiq grunt, hosildorlik, nav, duragay, yetishtirish sharoiti.

Kirish. Bodring yopiq grunda yetishtiriladigan asosiy sabzavot ekinlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Bodring organizmda ovqat xazm qilishni normallashtiradigan, ayniqsa oqsil va mineral moddalarni o'zlashtirishni yaxshilaydigan katta miqdorda vitaminlarga, organik kislota tuzlariga va boshqa moddalarga boy. Yopiq grunda bodring yetishtirish yuqori va stabil hosil olish imkonini beradi, lekin yopiq grunda bodring yetishtirishning issiqxonada mikroiklimni yaratish bilan bog'liq bo'lgan qiyinchiliklari mavjud. Shu bilan birga, yetishtiriladigan nav va duragaylarning maxsulot sifatiga yetishtirish texnologiyasi va issiqxona mikroiklimi xam katta ta'sir ko'rsatadi.

Bodringni himoyalangan grunda yetishtirganda yetishtirish muddati, texnologiyasi (mineral o'g'itlar me'yori, ekish sxemasi, sug'orish me'yorlari, shakl berish xillari va x.k.), issiqxona sharoiti (xavo va tuproq namligi, xarorati, yorug'lik) hosil miqdori va maxsulot sifatini belgilovchi asosiy omil bo'lib hisoblanadi.

Himoyalangan grunt mikroiklimining o'ziga hosligi (xavo va tuproq namligining oshib ketishi, xaroratning keskin o'zgarishi va x.k.) kasalliklarning ko'payishi va tarqalishi uchun qulay muxitni yaratadi. Bundan tashqari, issiqxonada bodring yetishtirganda o'simlikni vegetatsiya davrining qaysi fazasida qanday oziq elementiga talabchanligi kuchli ekanligini bilish muxim. Chunki, o'suv davri davomida oziq elementlarining yetishmasligi xam turli kasalliklarni kelib chiqishiga olib keladi. Bu esa o'z navbatida hosildorlik va mahsulot sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Tadqiqotlarning maqsad va vazifalari. Samarqand viloyati sharoitida yopiq grunda yetishtirish uchun mos bodring duragaylarini tanlash va bodring seleksiyasida muxit va genotip ta'sirini o'rganish tadqiqotlarning maqsadi bo'lib hisoblanadi.

Tajribalarimiz qishgi – baxorgi ekish muddatida olib borildi va tajribalarni o'tkazish mobaynida fenologik kuzatishlar, biometrik o'lchovlar, maxsulot sifati, kasalliklarga chidamlilik va hosildorlikni hisoblash bo'yicha baxolash ishlari olib borildi.

Tadqiqotlarni o'tkazish uslubi. Rossiyaning urug'chilik firmalaridan olib kelingan va tajribalarda tanlab olingan Kuraj F₁, Blyuz F₁, Asker F₁, Avrora F₁, Dluliya F₁, Media F₁, Effekt F₁ geterozis duragaylarini yuqorida keltirilgan ko'rsatkichlar bo'yicha baxolandi. Nazorat sifatida respublikamizda yetishtirish uchun davlat reyestriga kiritilgan Alanga F₁ duragayi olindi.

Fenologik kuzatishlar, biometrik o'lchovlar va hosildorlikni aniqlash «Metodicheskim rekomendatsiyam po provedeniyu opytov s ovochnymi kul'turami v soorujeniyax zashchennogo grunta» metodikasi bo'yicha aniqlandi.

Tajribamizda yopiq gruntida yetishtiriladigan bodring duragaylarining zamburug' kasalliklaridan perenosporoz, askaxitoz va fuzarioz kasalliklari bilan zararlanish darajasini vizual usulda baxolandi.

Olingan natijalar va ularning taxlili. bo'yicha olib borayotgan tadqiqotlarimizda issiqxonada yetishtirish sharoitining bodring nav va duragaylarining hosildorligi va maxsulot sifatiga ta'sirini xam o'rgandik.

Duragay o'simliklarining zamburug' kasalliklari bilan zararlanish darajasini aniqlash natijalari shuni ko'rsatdiki, askaxitoz va perenosporoz kasalligi bilan o'simliklar ko'proq zararlandi. Tajribalarda o'rganilgan duragaylar ichida askaxitoz va perenosporoz kasalligi bilan zararlanish ko'proq meva tugish davriga to'g'ri keldi. Asker F₁ duragayida gullash davrining boshlanishida kasalliklar bilan zararlanish kuzatilmadi. Lekin meva tugish davrida askaxitoz bilan zararlanish 3,8% ni tashkil qilib, o'rganilgan duragaylar ichida eng kasallanish kuzatildi. Kuraj F₁ duragayi faqat askaxitoz bilan zararlanib, umumiy zararlanish xar ikki rivojlanish davrida 17,4 foizni tashkil qildi. Meva tugish davrida perenosporoz bilan eng ko'p zararlangan duragaylardan Blyuz F₁ (22,5%), Avrora F₁ (21,7%) va Effekt F₁ (18,2%) duragaylari bo'ldi. Kuraj F₁, Asker F₁ duragaylarida bu kasallik bilan zararlanish kuzatilmadi.

Askaxitoz kasalligi bilan bodring geterozis duragaylarining bargi va poyasi zararlandi. Bu kasallik bilan zararlanish asosan o'suv davrining gullash va meva tugish fazalarida kuzatildi. O'rganilgan duragaylar Ichida fuzarioz bilan zararlanish kuzatilmadi.

Tajribalarda sog'lom o'simliklardan olingan ehg yuqori hosildorlik Kuraj F₁ (4,66 kg/tub), Blyuz F₁ (4,11 kg/tub), Djuliya F₁ (3,56 kg/tub), Avrora F₁ (3,49 kg/tub) duragaylarida kuzatildi.

Himoyalangan grunda bodring duragaylarining hosildorligi va maxsulot sifatiga kasalliklarining ta'siri

№	Nav va F ₁ duragaylar	Gullash davrida kasallanish,%			Meva tugish davrida kasallanish,%			Umumiy zararlanish,%	Sog'lom o'simliklardan olingan hosil, kg/ tub	Kasallangan o'simliklar maxsuldorligi, kg/tub	Ko'rilgan zarar, kg/tub
		askaxitoz	perenosporoz	fuzarioz	askaxitoz	perenosporoz	fuzarioz				
1	Alanga F ₁ (st)	6,8	-	-	10,4	-	-	17,2	3,40	2,82	0,58
2	Kuraj F ₁	7,2	-	-	10,2	-	-	17,4	4,66	3,85	0,81

3	Blyuz F₁	3,8	11,3	-	-	22,5	-	37,6	4,11	2,57	1,54
4	Asker F₁	-	-	-	3,8	-	-	3,8	2,98	2,87	0,11
5	Avrora F₁	-	6,2	-	-	21,7	-	27,9	3,49	2,52	0,97
6	Djuliya F₁	-	-	-	8,5	6,5	-	15,0	3,56	3,03	0,53
7	Mediya F₁	8,3	-	-	-	15,4	-	23,7	3,09	2,36	0,73
8	Effekt F₁	-	10,5	-	-	18,2	-	28,7	3,14	2,24	0,90

Kasalliklarning duragaylarning maxsuldorlik ko'rsatkichlaiga ta'siri o'rganilganda eng ko'p ko'rilgan zarar Blyuz F₁ (1,54 kg/tub), Avrora F₁ (0,97 kg/tub) va Effekt F₁ (0,90 kg/tub) duragaylarida kuzatildi. Eng kam zararlanish Asker F₁ (0,11 kg/tub) duragayida kuzatilib, bu duragayda umumiy zararlanish 3,8% ni tashkil etdi. O'rganilgan Kuraj F₁ duragayida umumiy zararlanish 17,4 % ni tashkil qilib, olingan hosil 3,85 kg/tub bo'lganligi kuzatildi.

Xulosalar. Viloyatimiz sharoitida yopiq gruntda yetishtirish uchun mos bodring duragaylarini tanlash va bodring seleksiyasida muxit va genotip ta'sirini o'rganish bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotlar davom ettirilmoqda. Quyidagi natijalar esa, eng kam zararlangan va yuqori hosil olish imkonini beradigan Kuraj F₁ va Djuliya F₁ duragaylarini ekish uchun tavsiya etishga asos bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar/Используемая литература/References:

1. С.Ф.Ващенко. Овощеводство защищенного грунта. М. 1984.
2. В.Г.Король. О сроках выращивания огурца в зимних теплицах. Ж.Гавриш. № 1.2007 стр13.
3. С.Ф.Гавриш и др. Гибрид огурца Ф1 Кураж: Технология выращивания партенокарпического гибрида. НП «НИИОЗГ» 2005. 152с
4. ovorot.ru/ogurez/zasr-grunt.h
5. greenhouses.ru/cucumber_in_gree.
6. Бекмурадова, Х. К., & Ёринова, М. (2022). ИССИҚХОНАДА БОДРИНГ ПАРТЕНОКАРПИК ДУРАГАЙЛАРИНИНГ ҲОСИЛ ТЎПЛАШ ДИНАМИКАСИ. *AGROBIOTEKNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI*, 1110-1113.
7. Бекмурадова, Х. К., А. И. Исмоилов, and Б. Ж. Ахмадалиев. "Оценка исходного материала для создание новых устойчивых к вирусной мозаике сортов томата." *Актуальные проблемы современной науки* 3 (2019): 170-173.
8. Бекмурадова, Х. К., and А. И. Исмоилов. "Самарканд, Узбекистан Samarkand Institute of veterinary medicine, Samarkand, Uzbekistan The scientific research institute of vegetable groups and potato studies in Samarkand scientific-experimental station, Samarkand, Uzbekistan." *ББК 65.2 C56* 58.
9. Bekmuradova, Xurshida Karimovna, and Ibragim Tashkentovich Ergashev. "HIMOYALANGAN GRUNTDА BODRING DURAGAYLARINING HOSILDORLIGIGA TURLI EKISH MUDDATLARINING TA'SIRI." *SCHOLAR* 2.5 (2024): 70-76.
10. Ergashev, Ibragim Tashkentovich, Xurshida Karimovna Bekmuradova, and Feruza

Ibragimovna Toshkentbaeva. "X-VIRUSINING KARTOSHKA MAHSULDORLIGIGA TAʼSIRI." *SCHOLAR* 2.5 (2024): 77-83.

11. Бекмурадова, Х. К., and А. И. Исмоилов. "ОЦЕНКА СТЕПЕНИ ЗАРАЖАЕМОСТИ СОРТООБРАЗЦОВ ТОМАТА С ToMV." *СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ, ТРАДИЦИИ И ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В РАЗВИТИИ АПК*. 2020.